



## IMOM BUXORIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

Mirzaraximov Oyatulloh

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,

Islomshunoslik yo'naliishi 2-kurs talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p2-69>

## ARTICLE INFO

Received: 02<sup>nd</sup> February 2023Accepted: 13<sup>th</sup> February 2023Online: 14<sup>th</sup> February 2023

## KEY WORDS

*Imom Buxoriy, Abdulloh ibn Muborak, Amir al-mu'minin fil-hadis, Abu al-Hasan, Al-Jomi' as-Sahih, Al-Adab al-Mufrad*

Imom Buxoriyning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Abul Hasan Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Jufiy Buxoriy. U Buxoro shahrida Juma namozidan keyin, 194 hijriy yil Shavvol oyining o'n uchinchi kechasida, Buxoro shahrida dunyoga kelgan (21.07.810). Kunyasi Abu Abdulloh hisoblanadi.

Manbalarda muhaddisning tug'ilgan joyi ikki xil shaklda kelgan: "Madinat Buxoro" va "Baldat Buxoro". Ikki so'z ham "shahar" degan ma'noni bildiradi. Bu ma'lumot o'ndan ortiq birlamchi manbalarda ta'kidlab o'tilgan. Lekin, shaharning qaysi qismida tug'ilganligi haqida aniq ma'lumot berilmagan. Laqabi Imom al-muhaddisin (muhaddislarning peshvosi), ba'zan Amir al-mu'minin fil-hadis (hadis ilmida mo'minlarning amiri) kabi keltirilgan.

Muhaddisning oilasi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Umrining oxirida bo'lgan voqealar. Samarqandga borishi va o'sha yerda vafoti etishi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Imom Buxoriy otasining bobosi al-Mug'iyra Buxoro hokimi Yaman al-Jufiydan islom dinini qabul qilgan bo'lib, Buxoroni vatan tutib yashab qolgan. O'sha paytdagi taomulga ko'ra, agar biron kishi islom dinini kimdan qabul qilsa, o'sha kishining qabilasiga mansub hisoblangan. Bu odat qabul qilingan dingga sodiqlikning belgisi bo'lib, arabcha nisbat al-vilo filislom (islom diniga sodiqlik nisbati) deb atalishi odat tusiga kirgan edi. Albatta al-Mug'iyra ham o'sha davrda ommaviy tus olgan ushbu urfdan holi bo'limganligidan uning o'zi ham, undan keyingi tug'ilgan avlodlari ham, shu jumladan imom Buxoriy ham Jufiy deb atala boshladilar.

Imom Buxoriyning otasi Ismoil, uning kunyasi Abul-Hasan bo'lib, o'z davrining yetuk muhaddislaridan sanalib, imom Molikning shogird va as'hoblaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan ham shug'ullangan. Afsuski hozircha uning qalamiga mansub biror asar haqida aniq ma'lumotlar ma'lum emas. Biroq uni Hammud ibn Zayd, imom Molik, Abu Muoviya kabi o'z

## ABSTRACT

*Ushbu maqolada Imom Buxoriyning hayoti, ilmiy faoliyati hamda uning hadis ilmida tutgan o'rni haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, maqolada Imom Buxoriyning ustoz va shogirdlari shuningdek, u haqida aytilgan fikrlar haqidagi ma'lumotlar ham keltirilgan.*



davrining yirik muhaddislaridan hadislar rivoyat qilgani, Abdulloh ibn Muborakning suhbatida bo'lib, undan ta'lif olgani haqidagi xabarlar manbalarda keltiriladi.

Imom Buxoriyning onasi ham taqvodor, diyonatli va har xil karomatlar sohibasi bo'lgan oqila ayol bo'lgan. U el orasida Alloh taologa iltijo etib, doimo duolar o'qib yuradigan pokiza ayol sifatida tanilgan edi. Ma'lumki, Imom Buxoriy yoshligida ko'zi jarohatlanib ko'rish qobiliyati susaygan bo'lib, har qancha urinmasin ham tabiblar uni davolay olmagandilar. Kunlardan bir kuni Buxoriyning onasi tushida Ibrohim alayhissalomni ko'rganda u zoti sharif bu mushfiqa onaga qarab: "Ey volida! Sening duolaringning ko'pligidan Alloh-taolo o'g'lingga to'liq ko'rish qobiliyatini qaytardi", - deb xitob qilganlar. Keyin u "Uyqudan uyg'onsam o'g'lim Muhammadning ko'z nuri to'liq qaytib tuzalib ketibdi"-degan rivoyat mavjuddir. Imom Buxoriy ilm talabini o'z vatanlari Buxoroda boshladilar. Boshlang'ich ilmlardan tahsil olib bo'lganlaridan keyin ikki yuz beshinchi hijriy sanada hadisdan dars olishni boshladilar.

Imom Zahabiy va boshqa tarixchilar aytadilar: «U kishining hadis eshitishni boshlashlari hijriy ikki yuz beshinchi yilda bo'ldi. Hijriy ikki yuz o'ninchi yilda, o'z yurtida, zamonasining ulug'laridan ko'plab hadislarni eshitib bo'lgandan keyin, hijriy ikki yuz o'ninchi yilda onasi va akasi bilan Baytullohni haj qilish uchun yo'lga chiqdi. Haj amallaridan so'ng akasi Buxoroga qaytdi. Ammo u Makkada qolishni afzal ko'rди. Makka Hijozdagagi eng muhim ilmiy markazlardan biri edi».

Imom Buxoriy u yerda o'zi izlab yurgan narsani topdi. Gohida Madinaga ham borib turar edi.

Imom Buxoriy o'z hayoti davomida ko'p marotaba va tom ma'noda sermahsul safarlarda bo'ldi. Buxoriy o'z zamonida qarib barcha islomiy mamlakatlarga, ba'zi birlariga esa, bir necha marotaba safar qildilar.

«Men Suriya, Misr va Arabiston yarim orollarini ikki marta ziyorat qildim,- deb yozadi Imom Buxoriy - bir necha marta Basrada bo'ldim, olti yil Hijozda (Saudiya Arabistoni) yashadim, Kufa va Bag'dod shaharlarida necha marta bo'lganimni eslolmayman».

Xatib Bag'dodiy yozadi: «Buxoriy barcha diyorlar muhaddislariga huzuriga safar qildi. U Xurosonda, Jibolda, Iroq shaharlarining barchasida, Hijozda, Shomda va Misrda bo'ldi. Bog'dodga bir necha marta kirdi».

Hofiz aytadi: «U Makkadan qaytganidan keyin turli diyorlardagi hadis mashoyixlari huzuriga, safar qilish imkon bo'lgan yerlarga bordi. Balxda, Niysaburda, Rayda, Bog'dodda, Kufada, Madinada, Vositda, Damashqda, Asqalonda, Himsda va boshqa yerlarda bo'ldi».

Imom Buxoriy ilm va hadis talabida umrining ko'p qismini safarlarda o'tkazgani avval ham aytib o'tilgan edi. Shuning uchun ham u kishini ustozlari juda ham ko'p bo'lgan. Muhaddislar kimdan birorta hadis rivoyat qilgan bo'lsa ham, o'sha shaxs unga ustoz – ularning o'z istilohlari bilan aytildigan bo'lsa – shayx hisoblanadi. Jumladan, imomning ustozlaridan quyidagilarni keltirish mumkin:

#### Buxorolik:

1. Muhammad ibn Salom Poykandi.
2. Muhammad ibn Yusuf Buxoriy.
3. Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy.
4. Horun ibn Ash'as va boshqalar.

#### Marylik:



1. Ali ibn Hasan ibn Shaqiyq.
2. Abdon ibn Usmon.
3. Muhammad ibn Muqotil va boshqalar.

**Balxlik:**

1. Makkiy ibn Ibrohim.
2. Yahyo ibn Bishr.
3. Muhammad ibn Abon.
4. Hasan ibn Shujo' va boshqalar.

Imom Buxoriyning shogirdlari ko'p bo'lgan. Manbalarning guvohlik berishicha, ulug' olimning bosh kitobi bo'lmish «Al-Jome' as-Sahih»dan uning bevosita rahbarligida 90 ming kishi ta'lif organ.

Ularning safida quyidagi mashhur muhaddislar ham mavjud:

1. Muslim ibn Hajjaj;
2. Imom Termizi;
3. Imom al-Nasai;
4. Ibn Xuzayma;
5. Mansur ibn Muhammad Bazdaniy.
6. Ibn Abu Dovud;
7. Muhammad ibn Yusuf al-Firabriy;
8. Ibrohim ibn Ma'qal Nasafiy;
9. Hammod ibn Shakar Nasoviy;

Manbalarda Imom Buxoriyning 20 dan ortiq kitob etganligi bayon etilgan. Lekin, ularning hammasi ham bugungi kungacha saqlanib qolmagan. Jumladan, quyidagi asarlari nashr etilgan:

1. "Al-Jomi' as-sahih" ("Ishonchli to'plam");
2. "Al-Adab al-mufrad" ("Adab durdonalari");
3. "Kitob al-kunya" ("Kunyalar haqida kitob");
4. "At-Tarix al-kabir" ("Katta tarix");
5. "At-Tarix as-sag'ir" ("Kichik tarix").

Abdurahmon Jomiy muhaddisning ilmiy salohiyatiga yuksak baho berib: Batxo (Makka) va Yasrib (Madina)da yasalgan tanganing Buxoroda sayqali kamoliga yetdi" - deb yozgan edi.

Muslim ibn al-Hajjaj imom Buxoriya o'z samimiyy munosabatlarini bildirib: "Sizni faqat hasadgo'ylargina ko'ra olmaydi. Mening iymonim komilki, sizdek buyuk olim jumlai- jahonda yo'q", - deb xitob qilgan.

Muhaddis Abu Iso at-Termizi: Imom Buxoriy el orasida tanila boshlagach, Abdulloh ibn Munir: "Ey Abu Abdulloh Alloh seni bu ummatning ziynati qilib yaratgan!" degan fikrini keltiradi. At-Termizi yana: "Alloh-taolo uning barcha xohishini mustajob qilib yaratgan edi"- deb ta'kidlaydi.

Bag'dodlik olim Abu Bakr al-Kaluzoniy (vafoti 249-hijriy yil) "Muhammad ibn Ismoil Buxoriya o'xshash hech bir olimni ko'rmadim. Biror ilmga oid har qanday kitobni olib sinchiklab mutolaa qillardida, unda keltirilgan barcha hadislarni bir martaning o'zidayoq yodlab olardi", -deb yozgan.



Ahmad ibn Sayyor Marvaziy: "Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'iyra Jufiy Abu Abdulloh ilm talab qildi. Odamlar bilan majlis qurdi. Hadis izlab safar qildi va unda mohir bo'ldi. U go'zal ma'rifatli, yaxshi hofizali edi va faqihlik ham qilardi".

Imom Ahmad ibn Hanbal: "Xuroson Muhammad ibn Ismoilga o'xshash kishini yetishtirmagan".

Muso ibn Horun Hammol: "Menimcha, ahli islomlar barchasi jamlanib Muhammad ibn Ismoilga o'xshash yana bir kishini ta'yin qilmoqchi bo'lsalar eplay olmaydilar".

Yahyo ibn Ja'far aytadi: "Agar qudratim yetsa, Muhammad ibn Ismoilning umrini ziyoda qilar edim. Mening o'limim, bir kishining o'limi bo'ladi. Muhammad ibn Ismoilning o'limi ilmning ketishidir"

### References:

1. Rahimjonov D., Muratov D., Obidov R., M.Alimova. Hadisshunoslik (o'quv qo'llanma). – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – T.: Sharq, 2011.
3. Muratov D. Hadisshunoslik (o'quv-uslubiy qo'llanma). – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015.
4. Muratov D. Hadis to'plamlarini qiyosiy o'rganish. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2018.